

ISSN: 2181-4031

# ФУНДАМЕНТАЛ


ТАДҚИҚОТЛАР ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ

1-СОН

ЯНВАРЬ, 2023



IMFAKTOR  
PAGES



ISSN: 2181-4031  
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
НОМЕР-1

ФУНДАМЕНТАЛ  
ТАДҚИҚОТЛАР  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ  
1-СОН

FUNDAMENTAL STUDIES  
SCIENTIFIC-PRACTICAL JOURNAL  
VOLUME-1



ТОШКЕНТ - 2023

## ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР

илмий-амалий журнали

№ 1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-1>

### Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

### Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

### Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.



**QORIYEV Mirzohid Rustamjonovich**  
*NamDU katta o'qituvchisi, g.f.f.d., PhD.*

**ABDUXAKIMOV Shermirza Xudaynazar o'g'li**  
NamDU talabasi

## **О‘ЗБЕКISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**

**Иқтибос келтириш учун (for citation, для цитирования): QORIYEV M.R., ABDUXAKIMOV Sh.X.** О‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari (Namangan viloyati misolida) // *Фундаментал тадқиқотлар.* № 1 (2023) Б. 126-134.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7585454>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmining ahamiyati va uni rivojlantirish salohiyati bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, ziyoratgohlarga eng boy hududlardan biri bo‘lgan Namangan viloyatining ziyorat maskanlari, ularni jaxon andozalari asosida obodonlashtirish, tamirlash va rekanstruksiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar xususida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ziyorat turizmi, ziyorat maskanlari, diniy turizm, muqaddas qadamjoylar.

## **ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация о значении паломнического туризма в Узбекистане и потенциале его развития. Кроме того, были обсуждены паломнические центры Наманганской области, которая является одним из самых богатых регионов для паломничества, и проводимая работа по их благоустройству, ремонту и реконструкции на основе мировых стандартов. Также описаны результаты проведенных исследований возможностей развития паломнического туризма в регионе.

**Ключевые слова:** Паломнический туризм, места паломничества, религиозный туризм, святые места.

## POSSIBILITIES OF PILGRIMAGE TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (NAMANGAN REGION AS AN EXAMPLE)

### ANNOTATION

This article provides information on the importance of pilgrimage tourism in Uzbekistan and the potential for its development. In addition, the pilgrimage centers of the Namangan region, which is one of the richest regions for pilgrimage, and the ongoing work on their improvement, repair and reconstruction based on world standards, were discussed. Also, the results of the conducted studies of the possibilities for the development of pilgrimage tourism in the region are described.

**Key words:** Pilgrimage tourism, places of pilgrimage, religious tourism, holy places.

Ziyorat qilish ming yillar oldin vujudga kelgan datlabki sayyohlik harakatlari hisoblanadi [15]. Zamonaviy turizm nisbatan yangi soha sifatida qaralsada, uning kelib chiqishi qadimiy ziyorat amallariga borib taqaladi [14]. Ziyorat turizmi – bu diniy turizmning kichik turi bo‘lib, bunda ziyoratchi shunchaki diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, diniy yodgorliklar va ashyolarni tomosha qilishdan tashqari, diniy yoki ma’naviy maqsadlarda sayohatga boradi. Ziyorat - bu qadimiy harakatchanlik shakli bo‘lib, zamonaviy va ziyorat turizmlarining asosi hisoblanadi, shuningdek, sayyohlarni diniy qarashlari va urf-odatlariga kuchli tarzda turtki beradi [18].

Hozirgi kunda sayyoramizning barcha mamlakatlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun qattiq bel bog‘laganlar (Amerika geografiya jamiyati) [17]. Jahon sayyohlik tashkilotining (UNWTO, 2011) hisob-kitoblariga ko‘ra har yili dunyodagi asosiy ziyoratgohlarga ziyorat qilish maqsadida 300 mln dan 330 milliongacha sayyoh tashrif buyuradi. Shuningdek, dunyoda olti yuz millionga yaqin milliy va xalqaro diniy sayohatlar amalga oshiriladi [6, 7, 16]. Shulardan eng yiriklari Hindistondagi Kumbh Mela shahrida bo‘lib o‘tadi. Ushbu shaharga har yili o‘rtacha 120 milliondan ortiq ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Bundan tashqari musulmonlar hayotida bir marta tashrif buyurish talab qilinadigan Makka shahridagi haj ziyorati amallari ham dunyodagi eng yirik ziyorat turizm markazlaridan biri hisoblanadi [18].

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatori O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining boy tarixi, madaniyati, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan olimu, allomalari, beqiyos madaniy meros obyektlari, qadimiy me’morchilik, hunarmandchilik va pazandachilik san’ati bilan bir qatorda, ziyorat turizmi yo‘nalishida ham yuksak salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekistonda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar — “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan [2].

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizmning boshqa yo‘nalishlari qatori ziyorat turizmini rivojlantirishga ham katta e’tibor berilmoqda [8]. Bu borada Mamlakatimizda qabul qilingan “2019 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi”ning o‘rni juda katta.

Chunki, ushbu konsepsiyada turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish vazifalari belgilab berildi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-338-son Qarori ziyorat turizmini rivojlantirish uchun juda muhim poydevor vazifasini bajaradi [1]. Mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq Turkiy dunyo doirasida “Tabarruk ziyorat” turizm konsepsiyasi qabul qilindi. Turkiy dunyo doirasida “Tabarruk ziyorat” turizm konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasining ziyorat turizmi yo‘nalishidagi ulkan salohiyatidan kelib chiqib, mamlakatimizda mavjud madaniy merosga qardosh millat va elatlarni keng jalb qilish, yosh avlodning xalqlarimiz tarixi va milliy-madaniy merosiga mehrini oshirish, Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, umumturkiy madaniy merosni birgalikda dunyoga targ‘ib qilish, bozorning turli segmentlariga yo‘naltirilgan sayyohlik mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, maqbul holda qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratishga qaratilgan [1].

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar doirasida ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Konsepsiyani amalga oshirish orqali mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar sonini oshirish imkoniyati mavjud. Jumladan, Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlardan 2022 – 2026-yillar davomida mamlakatimizga 5 milliondan ortiq sayyoh jalb etilib, 1,3 milliard AQSh dollariga yaqin turizm xizmatlari eksport qilishga erishish maqsad qilib olingan. Shu bilan bir qatorda, turkiy dunyo davlatlari xalqlari foydalanishi uchun yagona elektron portal tashkil etilishi natijasida turizm xizmatlarini raqamlashtirishga erishiladi. Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida tashkil etiladigan turli tadbirlar va loyihalar natijasida yosh avlod vakillarining o‘zaro madaniy yaqinlashuvi, milliy urf-odatlar va ajdodlarga hurmat kabi yuksak qadriyatlar shakllantiriladi [1].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmoni turizmning ushbu yo‘nalishini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi [3].

Prezidentimizning mazkur farmonlarida mamlakatimizning har bir viloyatlaridagi eng e‘tiborga molik ziyorat obyektlariga turistlar oqimini oshirish maqsadida bir qator muhim chora – tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilandi. Ushbu qarorda Namangan viloyatidagi ziyorat turizmi bo‘yicha eng diqqatga sazovor obyektlarni jaxon andozalariga mos holda obodonlashtirish, tamirlash va rekonstruksiya qilish, umuman olganda infratuzilmani yaxshilash orqali viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi.



Shu o'rinda aytish joizki, Namangan viloyati turizmning barcha yo'nalishlari bo'yicha o'rtacha salohiyatga ega bo'lgan mintaqalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida joylashgan moddiy-madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining geografik joylashuvi reytingiga e'tibor beradigan bo'lsak, Namangan viloyati arxeologiya, arxitektura, monumental yodgorliklar hamda diqqatga sazovor joylarning soni bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarga egahisoblanadi. Viloyatda jami 274 ta turistik obyekt mavjud bo'lib, ularning 152 tasi arxeologik ob'yektlar, 98 tasi arxitektura, 8 tasi monumental va 16 tasi esa diqqatga sazovor joylardir [4].

K.S. Mirzaakhmedov, M.R. Koriyev, J.T. Makulov va I.R. Nishanovalar (2015, 2018, 2019) bergan ma'lumotlarga ko'ra esa Namangan viloyatida 282 ta turistik madaniy meros obektlari mavjud bo'lib, shundan 103 tasi arxitektura yodgorligi, 155 tasi arxeologiya yodgorligi, 8 tasi monumental san'at asarlari, 16 tasi ziyoratgohlar hisoblanadi [9, 10, 11, 12]. Bu salohiyat ko'p sonli turistlarni o'zida qamrab olish imkonini beradi. Ushbu salohiyatdan samarali foydalanib, turizmni, ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida xukumatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6165-son farmonida Namangan viloyatining eng tabarruk ziyoratgoh maskanlaridan biri bo'lgan "Sulton Uvays Qaraniy" majmuasining nufuzini yanada oshirish va turistlar salmog'ini kengaytirish bo'yicha maxsus, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar belgilandi [3]. Shular jumlasiga "Sulton Uvays Qaraniy" majmuasini Namangan viloyatining ziyorat turizmi markaziga aylantirish, ushbu obyektga tashrif buyuruvchi turistlar sonini 2021 yil davomida jami 168 776 nafarga, shundan, ziyoratchilar salmog'ini 50 633 nafarga yetkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Turistlar uchun tashkil qilinadigan qo'shimcha transport qatnovlarini oshirish, ya'ni 72 ta havo yo'llari orqali, 30 ta temir yo'llari orqali, 723 ta avtobus orqali transport qatnovlarini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Turistlar uchun yaratiladigan qo'shimcha xizmat turlari hamda amalga oshirilishi rejalashtirilgan targ'ibot ishlari va ajratiladigan mablag'lar miqdori ham ushbu farmonda belgilab berildi (1-jadval).

Namangan viloyatida "Sulton Uvays Qaraniy" majmuasi singari nufuzli ziyorat manzilgohlari juda ko'p bo'lib, bu manzilgohlarga minglab ziyoratchilar tashrif buyuradi. Shular jumlasiga Uychi tumanida joylashgan "Devona buva maqbarasi"ni, Namangan tumanida joylashgan "Devona Eshon buva maqbarasi"ni, Pop tumanida joylashgan "Munchoqtepa" ziyoratgohini, Namangan shahrida joylashgan "Shayx Isoq Eshon" majmuasini, Namangan tumanida joylashgan "Mushkulkushod" mozorini misol qilib ko'rsatish mumkin (*qarang: 1-rasm*).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son farmoniga muvofiq Namangan viloyatidagi "Sulton Uvays Qaraniy" majmuasiga ichki turizm oqimlarini shakllantirish rejasi (*qarang: 1-jadval*).

## 1-jadval

Obyekt nomi	Turistlar uchun yaratiladigan qo‘shimcha xizmatlar	Amalga oshiriladigan targ‘ibot ishlari va ajratiladigan mablag‘lar	Tashrif buyuradigan turistlar soni		Turistlar uchun tashkil qilinadigan qo‘shimcha transport qatnovlari
			Umumiy	shundan, ziyoratchilar	
“Sulton Uvays Qaraniy” majmuasi	Obyekt ichida. Ziyorat odobi va tartibi aks ettirilgan ma’lumotlarni joylashtirish. Obyekt atrofida. Viloyat markazida va boshqa yirik aholi punktlarida ziyoratgohga olib keluvchi yo‘nalishni ko‘rsatuvchi yo‘l ko‘rsatkich va axborot belgilarini o‘rnatish. “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida ustuvor ravishda ziyoratgoh atrofida halol turizm talablariga javob beradigan oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish uchun 33 mln so‘mgacha kredit mablag‘larini ajratish.	Ziyoratgoh haqidagi bosma va elektron targ‘ibot materiallarini ishlab chiqish va keng targ‘ib qilish. Ziyorat odobi va tartibi haqida bukletlarni chop etish va ziyoratchilarga bepul tarqatish. 2021-yilda targ‘ibot uchun 50 mln so‘m mablag‘ ajratish.	168 776	50 633	72 — havo yo‘llari 30 — temir yo‘llari 723 — avtobus



**1-rasm.** Namangan viloyatida joylashgan muqaddas ziyoratgohlar. 1. “Devona buva” maqbarasi, 2. “Devona Eshon buva” ziyoratgohi, 3. “Munchoqtepa” ziyoratgohi, 4. “Shayx Isoq Eshon” majmuasi, 5. “Mushkulkushod” ziyoratgohi



Namangan viloyatidagi nomlari ta'kidlab o'tilgan ushbu ziyoratgohlarning har biriga yil davomida 20 mingdan ortiq ziyoratchilar tashrif buyuradi. Ushbu ko'rsatkich mazkur ziyoratgohlarning naqadar muqaddas ekanligidan, aholi o'rtasida ularning nufuzi juda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Namangan viloyatida joylashgan shu va shu kabi ziyoratgohlar to'g'risida 2-jadvalda kengroq ma'lumotlar keltirilgan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki Namangan viloyatida bir qancha ziyoratgohlar mavjud bo'lib, ularga juda ko'plab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Ushbu ziyoratgohlarning nufuzini va tashrif buyuruvchilar sonini oshirish maqsadida ko'plab muqaddas qadamjoylarni jahon talablari bo'yicha ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari yuksak saviyada olib borilmoqda. Misol uchun Chortoq tumanidagi "Sulton Uvays Qaroniy" ziyoratgohi, Chust tumanidagi "Bibiona" ziyoratgohi, Pop tumanidagi "Hazrati Bob" ziyoratgohida qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, Namangan shahrida joylashgan "O'n bir Ahmad" va "Qodirxo'ja Eshon uyi", Uychi tumanidagi "Devona buva", Chust tumanidagi "Buonamozor" va "Ayritom bobo", Namangan tumanidagi "Xilvatxona" ziyoratgohlarida rekonstruksiya va restavratsiya-tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu obyektlarning ayrimlarida ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

2-jadval

Namangan viloyatida joylashgan ayrim ziyoratgohlar to'g'risida ma'lumot

№	Ziyorat turizm obyekti joylashgan tuman yoki shahar	Turizm obyekti nomi	Turizm obyekti turi	Yillik tashrif buyuruvchilar soni
1.	Namangan viloyati, Namangan shahar, Ko'zagarlik ko'chasi, 49- uy	Xo'ja amin maqbarasi	Ziyoratgoh	2000 nafar atrofida
2.	Namangan viloyati, Uychi tumani,	Ovchi buloq tepa	Ziyoratgoh	Aniq emas
3.	O'nxayat MFY	Imom ota maqbarasi	Ziyoratgoh	15-20 ming nafar
4.	Namangan viloyati, Uychi tumani, Fayziobod MFY.	Devona buva maqbarasi	Ziyoratgoh	25-30 ming nafar atrofida
5.	Namangan viloyati, Uychi tumani Daxiyakota MFY	Daxiyakota ziyoratgohi	Ziyoratgoh	10-12 ming nafar atrofida
6.	Namangan viloyati, Chust tumani, Toshqo'rg'on MFY	Xoja Abduraxmon ibn Avf maqbarasi	Ziyoratgoh	7-8 ming nafar atrofida
7.	Namangan viloyati, Namangan tumani, Xonabod MFY	Devona Eshon buva maqbarasi	Ziyoratgoh	20-25 ming nafar atrofida
8.	Namangan viloyati, Pop tumani, M.Fayazov nomli ko'cha	Munchoq tepa (Shahriston)	Ziyoratgoh	25-30 ming nafar atrofida
9.	Namangan viloyati, Namangan shahar, Namangansoy ko'chasi 3-uy	Shayx Isoq Eshon majmuasi	Ziyoratgoh	28-30 ming nafar atrofida
10.	Namangan viloyati, Kosonsoy	Gungalak yer osti	Ziyoratgoh	13-15 ming nafar

	tumani, Jome MFY	ham mom i		atrofida
11.	Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, Gulqishloq MFY.	Langarbibi maqbarasi	Ziyoratgoh	15-18 ming nafar atrofida
12.	Namangan viloyati, Chust tumani, Pansada MFY	Otchopar Eshon buva xonaqosi	Ziyoratgoh	10-12 ming nafar atrofida
13.	Namangan viloyati, Chust turmani, Pansada MFY	Korapolvon ota ziyoratgoxi	Ziyoratgoh	aniq emas
14.	Yangiqo'rg'on tumani Oqtom MFY	"Oqtom sahoba"	Ziyoratgoh	15-18 ming nafar atrofida
15.	Namangan tumani	"Mushkulkushod mozori"	Ziyoratgoh	25-28 ming nafar atrofida

*Izoh: jadval Namangan viloyati turizmni rivojlantirish boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi [13].*

Musulmon olamiga ma'lum va mashhur bo'lgan ziyoratgohlardan biri Namangan viloyatining Chortoq tumanida joylashgan Sulton Uvays Qaroniy Majmuasi hisoblanadi.

*2-rasm*



*2-rasm. Namangan viloyatining Chortoq tumanida joylashgan Sulton Uvays Qaroniy majmuasi (mazkur rasm [www.uzbekistan.travel](http://www.uzbekistan.travel) saytidan olindi)*

So'nggi yillarda "Sulton Uvays Qaroniy" majmuasi hududida keng ko'lamli qayta qurish ishlari olib borildi. Majmua hududi va unga tutash qism obodonlashtirildi, kutubxona va hattoki mehmonxona qurildi. Bugungi kunda majmuada ziyorat marosimlarini amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Asosiy kirish ramziy darvoza bilan bezatilgan. Markaziy qismida suv ombori joylashgan, masjid va maqbaraning qad rostlagan binolari shu qadar mohirlik bilan bezatilganki, ular qushlar uchadigan balandlikdan qaraganda o'yinchoqlarga o'xshab ko'rinadi.

Namangan viloyatidagi obod qilingan yana bir muqaddas ziyoratgohlardan biri Namangan shahrida joylashgan “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohi hisoblanadi (3-rasm). Ta’kidlash joizki, qariyb 1 gektar maydonni egallagan mazkur ziyoratgohda maqbara, 110 metrli sharqona uslubdagi ayvon, uchta shiypon, tahoratxona, namozxona, jonliq so‘yish uchun alohida joy va oshxona barpo etilgan. Shuningdek, 150 ta mashina uchun mo‘ljallangan avtoturargoh foydalanishga topshirilgan.

Ziyoratgohni qurishda milliy me’morchilik an’analaridan foydalanilgan. “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohi majmuasi atrofini istirohatgohga aylantirish maqsadida ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan.



*3-rasm. Namangan viloyati Namangan shahrida joylashgan “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohi (mazkur rasm [www.bugun.uz](http://www.bugun.uz) saytidan olindi)*

Namangan viloyatida yana ko‘plab muqaddas ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ularni “Sulton Uvays Qaroniy” majmuasi hamda “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohi majmualari kabi fayzli maskanga aylantirilmoqda.

Namangan viloyati hududida olis va yaqin o‘tmishdan sado beruvchi 300 ga yaqin moddiy madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shulardan 24 tasi muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich, Namangan viloyatida ziyorat turizmini jadallik bilan rivojlantirish imkoniyatining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Shu bois, viloyatdagi uzoq ming yilliklarga borib taqaluvchi tarixiy obida va ziyoratgohlarni eng avvalo asrab avaylash, ularni kelajak avlodlarga asl holda qoldirish choralarini ko‘rish lozim. Shuningdek, ularni jahon talblari darajasida ta’mir lab, obod va ko‘kalamzorlashtirilgan maskanlarga aylantirish, ziyorat turizmining jadal rivojlanishiga ulkan zamin yaratadi.



## IQTIBOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PQ-338-son Qarori. (2022). “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – <https://lex.uz/uz/docs/-6137065>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-5611-son Farmoni. (2019). “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – <https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-6165-son Farmoni. (2021). “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – <https://lex.uz/docs/-5283956>
4. Abdikulov, F. I. (2022). Samarqand viloyati bioiqlimiy sharoitlari va ulardan turizmni rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari. Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. Toshkent, 157 b.
5. Gulyamova, G. P., & Abdusalomova, F. (2022). Development of pilgrimage tourism in Uzbekistan. *Builders Of The Future*, 2(02), 264-269.
6. Jaeyeon Choe and MiChael O‘Regan. (2015). Religious Tourism Experiences in South East Asia. *Religious Tourism and Pilgrimage Management: An International Perspective, 2nd Edition* (eds R. Raj and K. Griffi).
7. Kevin Griffin and Razaq Raj. (2017). The Importance of Religious Tourism and Pilgrimage: reflecting on definitions, motives and data. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*. Vol. 5: Iss. 3, Article 2.
8. Khashimov Sherakhon Jurakhonovich. (2020). Pilgrimage Tourism in Uzbekistan; Problems and Solutions. *Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities*. Vol 2: Issue II. – P. 262-265.
9. Koriyev, M. R., & Nishanova, I. R. (2018). Touristic capabilities of Namangan region and how to use its potentials in an effective way. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 3(3), 168-172.
10. Кори́ев, М. Р., Мирзаахмедов, Х. С., & Нишанова, И. (2019). Особенности регионального распространения историко-туристических ресурсов намаганской области по районам. *Экономика и социум*, (10), 223-226.
11. Mirzaakhmedov, H. S., Makulov, J. T., & Koriyev, M. (2015). Problems of tourism development in Namangan region and priority directions in their solution. In *Proceedings of the scientific-practical seminar of the Ferghana Valley Geographers Association. Namangan* (pp. 157-159).
12. Mirzaakhmedov, K. S., & Koriyev, M. R. (2019). Special features of Namangan region in the development of tourism in Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (78), 635-639.
13. Namangan viloyat turizmni rivojlantirish boshqarmasi. (2021). Namangan viloyatidagi mavjud turizm obyektlari va ularning atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmasi holati bo‘yicha ma‘lumot. Namangan, 7 b.
14. Noga Collins-Kreiner. (2020). Pilgrimage tourism-past, p resent and future rejuvenation: a perspective article. *Tourism review*. Vol. 75, No.1. pp. 145-148, Emerald Publishing Limited.
15. Timothy, D.J. and Olsen, D.H. (Eds). (2006). *Tourism, Religion and Spiritual Journeys*, Routledge, London and New York, NY.
16. UNWTO (2011) *Religious Tourism in Asia and the Pacific*. World Tourism Organization (UNWTO), Madrid, Spain.
17. Vijayanand, S. (2014). The Issues and Perspectives of Pilgrimage Tourism Development in Thanjavur. *International Journal of Tourism & Hospitality Review (IJTHR)*. Vol. 1 (1). pp. 45-51.
18. <http://outbox-consulting.com>. (2020). Pilgrimage tourism to harmonize religious and economic development (<http://outbox-consulting.com/pilgrimage-tourism-to-harmonize-religious-and-economic-development.html>).